
MAHALLA BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Mahallalar jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida barcha insoniy fazilatlarini shakllantirish, oilalarda tinchlik-totuvlikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan mahallalarda ishlash tizimini tubdan yaxshilash hamda mehnat qilayotgan xodimlarga qulay sharoitlar yaratib berish borasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshloq tumanida mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida bugun Quyyakkatut MFY binosi yangidan qurib, foydalanishga topshirildi. Mahalla binosining tantanali ochilish marosimida tuman hokimi A.Djurabayev, sektor rahbarlari, nuroniy otaxonlar hamda mahalla faollari ishtirok etdilar.

Quyyakkatut mahalla fuqarolar yig'inining yangi binosi tadbirkor M.Xonqulov tomonidan barpo etilib, qurilish ishlariga 280 million so'm mablag' yo'naltirildi.

2022-10-03 18:25:47